

SHARQ MAMLAKATLARI: YAPONIYA VA XITOIY DAVLATLARINING
MADANIYATI YONDASHUVI

Mamurova Sevinchxon G'ofurjon qizi

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mamlakatlari Yaponiya va Xitoy davlatlarining madaniyati, iqtisodiy hayoti, fani, yer tuzilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tayxoryo, urug' vakillari, imtiyozli mulklari, poytaxt axboroti, ibodatxona, klassik asarlari.

Yaponiya va tarixiy rivojlanishi, bugungi kunda yaqqol ko'rish mumkin. Bu asl mamlakat ajoyib, hatto eng yaqin qo'shnilari hududida paydo ko'p jihatdan, asrlar davomida deyarli o'zgarmadi xos madaniyatini oshirish imkoniga ega bo'ldi. Yaponiya uchun tipik an'analari asosiy xususiyatlari, birinchi Ilk o'rta asrlarda paydo bo'ldi. Shunda ham, rivojlanayotgan odamlar san'at tabiati, uning go'zalligi va hamjihatlik tushunish yaqinroq olish istagi bilan belgilangan edi. Har bir dehqon xonadoni 6 yoshdan hisoblangan jon boshiga vaqtinchalik foydalanishga haydaladigan yer olgan. Erkaklar taqsimoti 2 tan¹ ga teng bo'lib, ayollar shu maydonni 2/3 qismini olgan. (6 sotix). Oilada yangi qo'shilgan "jon" yoki vafot etganligi hisobga olinib har 6 yilda taqsimot qaytadan ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari dehqon oilasiga mulk huquqi asosida bog' va qo'rg'onlar biriktirib berilgan. Yerni shu tarzda taqsimlanishi har qanday urug'chilik aloqalarini yo'qqa chiqaradi. Dehqonlar feodal jamiyatining bir tabaqasi bo'lib, "ryomin" – "saxiy odamlar" deb, bularga qarama-qarshi tarzda yatsuko – qullarni "pastkash odamlar" nomi bilan atashgan. Jon boshiga yer olgan dehqon davlatga don solig'i va uy sanoati buyumlari solig'i: mato va mahalliy hunarmandchilik buyumlari solig'i to'laganlar. Mahsulot rentasidan tashqari dehqonlar barshchina o'taganlar. Ular davlat va mahalliy boshqaruv foydasiga uzoq – bir yilda 100 kungacha ishlab berganlar. Dehqonni yerdan ketishi yoki uni olishni rad etishi qattiq jazolangan, chunki bu hol hukmron tabaqani dehqonlardan olayotgan soliq va to'lovlarni 'asayib ketishiga olib kelardi. "Tayka davlat to'ntarishi" va yangi tartiblarni rasmiylashuvi oxir oqibat feodal munosabatlarning g'alabasi bo'lib, davlat tomonidan dehqonlarni yerga bog'lanishi va feodallar sinfi tomonidan ularga zulm o'tkazishni ta'minlab berdi. Avvallari shaxsan erkin jamoachilar va yarim qul "be"lar ezilayotgan dehqonlar tabaqasini tashkil etgan bo'lsa, endilikda "be" atamasi juda tor ma'noda, podsho saroyida hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan toifaga nisbatan ishlatilgan. Ammo qulchilik bekor qilinmagan. Tayxoryo kodeksida nafaqat qulchilikdan olingan, balki, ba'zi toifa qullarining (yatsuko) vazifalari belgilangan bo'lib, qulchilikning huquqiy kafolatlari ham belgilangan. Shuningdek, bu qonunda kimning qaramog'ida qullar bo'lsa qo'shimcha yer olishi ham mumkin bo'lgan: kodeks bo'yicha har bir davlat quliga ozod kishi singari yer

ajratilgan, shaxsiy qullar uchun ozod kishining 1/3 miqdorida yer berilgan. Agar alohida olingan katta oilada qullar soni ko'p bo'lsa (masalan, 646-yilgi ma'lumotga ko'ra bir feodalning 22 nafar, uning xotinida esa 34 nafar quli bo'lgan) u holda feodal o'z yer mulkini yanada kengaytirishi mumkin bo'lgan. Ammo eng ko'p qullarga podsho saroyi va ibodatxonalar egalik qilgan. Masalan, Naradagi Todaydzi ibodatxonasida 500 nafar qullar bo'lgan. Hukmron tabaqa iloji boricha o'z qullari sonini ko'paytirishga harakat qilgan. Qullarning asosiy manbasi mamlakatning chekka o'lkalaridagi "boshqa urug' vakillari" hisoblangan. Dehqonlarni haydab ketish, o'g'irlash, bolalar va ayollarni qo'rqitib olib qochish, oila boshliqlaridan kichik a'zolari sotib olish va o'zini ixtiyoriy ravishda (ko'p qarzi bo'lsa) qul qilib sotish hollari ko'p uchragan. VII-VIII asrlarda qullarga egalik qilish bir muncha kengaygan. VII asrda butun aholi 6 mln. kishini tashkil etgan holda uning 15 % i qullar hisoblangan. Qullar mehnatidan ko'proq davlat qurilish ishlarida foydalanilgan. Nara shahrini va shu yerdagi ulkan Buddha haykalini ham qullar qo'li bilan yaratganlar. VIII asr oxiri IX asr o'rtalaridan boshlab qullar mehnatidan foydalanish kamayib, dehqonchilikda umuman ulardan foydalanish to'xtatilgan. Hukmron tabaqa o'zlariga birlashtirilgan yerlardan foydalansalar ham ularning yer mulklari dehqonlarnikidan tubdan farq qilgan. Bunday "imtiyozli mulklar"ning miqdori egasining egallab turgan mavqei va amaliga bog'liq bo'lgan. "Imtiyozli mulklar" tarkibi kichik unvonga ega bo'lganlar uchun 8 tyo, I- darajali unvon egalari 80 tyo, amallar pog'onasi bo'yicha 6 tan dan 40 tyo gacha, bundan tashqari "Tayka davlat to'ntarishi"dagi ishtiroki uchun 100 tyo gacha yer berilgan bo'lib, imperator xayr-saxovati ila 250 tyo yer olganlar¹⁸. Shunday qilib, feodalning eng kichik yer mulki dehqonnikidan 40 marta, moyana sifatida imperatordan olingan mulklari 1250 marta ko'p bo'lgan.

Unvonlar va egallangan amallar uchun berilgan mulklar shu amal va unvonlarni holatiga qarab foydalanish muddatlari belgilangan. "xayr-sohovat" mulklari umrbo'yiga berilgan. Xizmat ko'rsatganligi uchun berilgan mulklar ko'rsatilgan xizmatga qarab, 1,2,3 avlodlarga belgilangan, boshqacha aytganda bu yerlar xususiy mulkka aylanib bo'lgandi. Bulardan tashqari yirik mulkdorlarni imperator tomonidan dehqonlarga "boqish" uchun birlashtirib qo'yilgandi. Har bir birlashtirilgan dehqon hovlisi feodalga malum miqdorda ulush berib turgan. Unvonlarga ko'ra bir feodalga 100 dan 800 gacha dehqon hovlisi, amaldorlarga 300 dan 3 mingacha, davlat oldidagi xizmatlari uchun cheklanmagan miqdorgacha birlashtirilgan¹⁹. Hovlilarga birlashtirilgan dehqonlar yetishtirgan donlarning yarmini davlat xazinasiga soliq tarzida topshirsalar, yarmini o'zlari birlashtirilgan feodalga beradilar. To'lov va ishlab berish majburiyatlari to'laligicha feodalga tegishli bo'lgan. Imperator xonadoni nafaqat o'z mulklaridan, balki mamlakatdagi barcha dehqonga ajratilgan yerlardan ham foyda olardi. Foydaning bir qismi hukmron tabaqaning egallagan lavozim va unvonlariga

¹Tan – o'sha paytda 0,12 ga. bo'lgan. (12 sotix)

²1 tyo – 10 tanga teng bo'lib, 1,2 gektaga teng.

ko'ra taqsimlab berilgan. Shunday qilib, zodagonlar vakillari imtiyozli yerlardan, birlashtirilgan oilalardan tashqari imperator saroyidan doimiy ravishda shoyi matolar, ipak va qishloq xo'jaligi qurollarini xayr-ehson sifatida olib turganlar. Bu xildagi zodagonlar yuqori darajadagi amaldorlarga aylanib, huquqiy jihatdan rasmiylasha boradilar. Avvalgi lavozim va unvonlar garchi merosga aylangan bo'lsada, endilikda ularni imperatorning o'zi tayinlaydigan bo'ldi, shunda ham meros qolish ahamiyati yo'qolmaydi. Butun yer davlat mulki hisoblanib, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lgan dehqonga vaqtinchalik chek yer sifatida berilgan agrar tuzum asosiy vazifa – dehqonlarni yerga bog'lab qo'yish vazifasini bajarishga yo'naltirilgan edi. "Tayka davlat to'ntarishi"dan keyingi feodal davlatning qonunlarni qo'llashi Yaponiyadagi yangi feodal xo'jayinlar hokimiyatini mustahkamladi. Ularning ko'pchiligi urug' oqsoqollarining avlodlari bo'lib, feodal zodagonlarga aylanadi va o'zlariga iqtisodiy-siyosiy imtiyozlarni birlashtirib oladilar. Yer taqsimoti tizimi bilan birga davlat boshqaruvining yangi usuli ham joriy etilgan: butun mamlakat yirik ma'muriy o'lkalarga, o'lkalar mayda uyezdlarga bo'lingan. O'lkalarni gubernatorlar, uyezdlarga esa uyezd boshliqlari rahbarlik qilgan. O'lka ma'muriyati markaziy hokimiyatga bo'ysungan bo'lib, unda boshqaruvning alohida tarmoqlarini boshqaradigan 8 ta mahkama tashkil etilgan. Hukumatning oliy tashkiloti – "dadzyokan" – davlat kengashi (urug' vakillari) hisoblangan. Shu tartib yarim asr mobaynida shakllanadi. 701-yildagi "Tayxoryo" qonunlari to'plami ham shu tartiblarning mahsuli hisoblanadi. 710-yilga kelib Yaponiyaning birinchi doimiy poytaxti – Nara shahri qurib bitkazildi. Biz o'rganayotgan Yaponiyaning o'sha davr tarixiga oid hujjatlar xitoy tilida yozilgan. Bu hol o'sha paytda yaponlarning o'z yozuviga ega bo'lmagani va barcha savod chiqarish ishlari xitoycha bo'lgan. Hatto xitoy tili uzoq vaqt davlat boshqaruvi tili ham bo'lib kelgan. Shuning uchun o'sha vaqtdagi tartibotga oid atamalarni faqat xitoy tilida zikr etilishining izohi ham shu. Xitoy tartibotlarining Yaponiyaga to'la olib o'tilishi haqidagi tasavvurlarga ham sabab shu yerda. Albatta, xitoycha tartibotlarning Yaponiyada o'rnatilganiga shubha yo'q. U vaqtda Xitoyda yer taqsimoti tizimi o'rnatilgan, markazlashgan davlat qurilmasi mustahkamlangan edi. "Tayka davlat to'ntarishi" namoyondalari Xitoyni namunali davlat deb hisoblashgan. Shu sababli ham ko'p uslublar Xitoydan qabul qilinadi. Ammo eng muhim jarayon – yangi tuzumning paydo bo'lishi ya'ni, ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, feodal qaram munosabatlarining qulchilik qobig'ida yuzaga kelishi faqat Yaponiyaning ichki taraqqiyoti mahsuli bo'lgan. Nara davri (davlat poytaxti Nara shahri bo'lgan yillar, 710-784 yillar, yapon tarixshunosligida odatiy atalish) yapon madaniy hayotida ko'p jarayonlarni yuzaga keltirdi va rivojlandi. Birinchi navbatda Nara shahrining o'zi paydo bo'ladi. Xitoy ustalarining nazorati ostida, Chan'an shahri namunasida qurilgan bu shahar aholisi ko'p, ko'rkam, katta, boy savdoga ega hisoblanib, yer yuzida faqat bitta shahar – Konstantino'ol bellasha olardi. Nara shahridagi Todaydzi monastrida 728-yilda balandligi 16 metrli bronzadan quyilgan "Ulkan Budda" (Daybutsu) haykali o'sha davr metal quyish sohasining eng hayratli yutug'i bo'lgan. Shahardan uncha uzoq bo'lmagan joyda 607-yilda Xoryudzi monastri bo'lib, u yog'och me'morchiligida ajoyib namuna bo'lgan. Nara shahri saroyida va ibodatxonalarida bronza, oltindan yasalgan ko'pgina buyumlar, haykallar bo'lib, ular yapon, koreys, xitoy ustalari tomonidan yasalgan.

Kodziki (710-yil), Nixongi (720-yil) ijodlari tufayli yapon tarixshunosligidagi dastlabki asarlar yaratiladi. Ularda qadimgi afsonalar, maqollar va xronologiya aks etgan. Ammo bu yozma yodgorliklarni mualliflari o'z oldiga imperator hokimiyatini mustahkamlash maqsadini qo'yadilar. Ular imperatorni sintoizm dinidagi xudo Amaterasuning avlodlari deb ulug'laganlar. Ammo, yaponlar tarixi bu davr – mil. avv. 660-yil haqida biror-bir ma'lumot bermaydi. Yilnomalar IV-VII asrlardagi saroy hayoti haqida ko'p ma'lumotlar beradi. Yana shu jihatdan qimmatli, yilnomalar qadimgi yapon poeziyasi haqida ham ma'lumotlar beradi. VIII asrning ikkinchi yarmida yapon xalq qo'shiqlari, 'oeziyasi va gullayotgan adabiyotining ilk to'lami- Man'yosyu yaratilgan.

Qadimgi Xitoy o'ziga xos betakror madaniyat bilan jahon madaniyatini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning ta'siri ayniqsa Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida kuchliroq aks etdi. VI - XI asrlarda Xitoy madaniyati juda yuksak bir madaniyat edi. Xitoyning sog'oriladigan dehqonchilik, qisman poliz dehqonchiligi bor edi. Qishloq xo'jaligida sholi, paxta choy, ipak yetishtiriladi edi. Ko'p miqdorda temir, mis, oltin, kumush qazib ehiqarildi. Xitoy chet mamlakatlarga, asosan choy, xom ipak, xitoy chinnisi, xitoy shoyisi va ip gazlamalar, temir va misdan qilingan har turli buyumlar chiqaradi edi. Xitoyda XI asrda 2 mingdan ortiq shahr bor edi²⁰. Chanan, Loyan, Kanton. Xanchjou shaharlarida bir million atrofida aholi yashar edi. Xitoyda ilm-fan yuksak darajada rivojlandi. Eng qadamgi yozuv (iyeroglif yozuv) bor edi.

Yozuv qog'ozini birinchi marta Xitoyda kashf etildi. Kitob ham birinchi marta Xitoyda chiqarilgan. VIII asrning boshlarida "Poytaxt axboroti" nomli rasmiy hukumat gazetasi vujudga keldi. Bu gazeta XX asrning boshlarigacha chiqib keldi. Xitoylar matematika, astronomiya, geografiya, tarixni urganar edi. VIII asrda Xitoyda Xanlin fanlar akademiyasi tashkil qilindi. O'rta asr Xitoyini o'z yilnomalari bilan dong chiqardi. Sun imperiyasi davrida 500 yilnoma saqlangan. Xitoyda 100 minglab qo'lyozmalar saqlanadigan katta-katta kutubxonalar bor edi. Bir nechta shaharlarda oily maktablar bo'lib. bu maktablarda davlat amaldorlari tayyorlanardi.

Xitoy adabiyoti ilk O'rta asrlar davridayoq klassik asarlar yaratdi²¹. Tan dinastiyasi vaqlida shoirlardan Li Bo (701-762), Du Fu (712-770), Bo Szyuyuy I (772-846) juda ham shuhrat qozongan edi. O'rta asrlar davrida Xitoyda arxitektura bilan tasviriy san'atni rivojlantirishga ko'p e'tibor berildi. Xitoy binolari -saroylar, ibodatxonalar, minoralar, shahar darvozalari, ko'priklar, turar joylar o'zlarining stili jihatidan xilma-xil arxitektura jihatidan ixcham va nafis qilib qurilar edi. Bu binolar juda xilma-xil matereallardan: tosh, yog'och, marmar, temirdan ishlanar edi. Ular jimjimador naqsh, chinni, tillalar bilan bezatilar edi. Bu davrda rassomlik yuqori darajada rivojlandi. Xitoy rassomlari ipak matoga, qog'ozga, yog'ochga, toshga rasm solar edilar. Sun dinastiyasi davrida -Chjaolzi ("Yovvoyi g'ozlar") va Gu Xun-chjun ("zodagon amaldorlikda tungi bazm") rasmlari o'z davrida dong chiqargan. Noma'lum rassom tomonidan ishlangan "Qishloq maktabi" degan rasm shuxrat qozondi.

²⁰ V.F.Semyonov. O'rta asrlar tarixi. O'qituvchi nashr. Toshkent. 1973 y.

²¹ V.F.Semyonov. O'rta asrlar tarixi. O'qituvchi nashr. Toshkent.

Shunday qilib, Tan va Sun imperatorliklari davrida boshqa osiyo mamlakatlari kashfi Xitoyda ham fan, madaniyat, san'at, adabiyot, arxitektura va rassomlik rivojlandi va Xitoy taraqqiyotida ijobiy rol o'ynadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mamlakatlari san'ati va madaniyati ko'p xalqlar va elatlari yaqin aloqada bo'ldi. Shu bilan birga, ularga ta'sir o'tkazadi. Qadmiy boy an'analarga ega bo'lgan Xitoy san'ati bo'ziga nisbatan endi shakllanayotgan davlatlar san'atining shakllanishida muhim ro'l o'ynadi. Yaponiya amaliy-demokratik san'ati taraqqiyoti mamlakatning badiiy madaniyati taraqqiyoti bilan birga rivojlabdi. Kulolchilik san'atida yapon ustalari ajoyib namunalar yaratdilar. Chinni va shoyiga gul ishlash borasidagi yutuqlar ham yapon madaniy mavqeini yanada ortishiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.V.F.Semyonov. O'rta asrlar tarixi. O'qituvchi nashr. Toshkent.
- 2.Xrestomatiya po istorii srednix vekov. Prosvisheniye. Moskva 1980 chast 1 .
- 3.R.Qurbongaliyeva. O'rta asrlar tarixidan o'quv-metodik qo'llanma. Toshkent – 1989.
- 4.R. Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. Fan va texnologiya nashr. Toshkent.2009.